

TO‘Y MAROSIMLARINI IXCHAMLASHTIRISH: SHUKUHMI YOKI ISROF? IJTIMOIY ZARURAT VA MA’NAVIY MAS’ULIYAT

Muallif: **Baltayeva Zinnat Mahmud qizi**

O‘zbekiston Milliy Universiteti, 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekistonda to‘y va oilaviy marosimlarni ixchamlashtirish masalasi ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy, ma’naviy hamda huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashining 2736-III/QQ-592-III-sonli qo‘shma qarorining mazmun-mohiyati yoritilib, uning jamiyat barqarorligi va yosh oilalar farovonligidagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, Yevropa davlatlaridagi ixcham to‘ylar tajribasi va mahalliy dabdabali to‘ylar taqqoslanadi, isrofgarchilikning salbiy oqibatlari Qur’oni karim oyatlari, hadislar hamda milliy qadriyatlar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: to‘y marosimlari, isrof, falsafa, me’yor, nikoh, ijtimoiy barqarorlik, ma’naviyat, qo‘shma qaror, oila, yoshlar tarbiyasi.

KIRISH

To‘y marosimlari xalqimizning asrlar davomida shakllangan urf-odatlari va ma’naviy hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. To‘y — ikki yosh hayotidagi muhim bosqich bo‘lib, qarindosh-urug‘ va jamiyatni birlashtiruvchi ijtimoiy hodisadir. Biroq zamonaviy jamiyatda to‘y marosimlari tobora tashqi ko‘rinish va iste’molchi tafakkur ta’sirida o‘zining asl ma’nosidan uzoqlashib bormoqda, to‘ylarning haddan tashqari dabdabali va isrofgarchilik ruhida o‘tkazilishi yosh oilalar uchun jiddiy iqtisodiy va ruhiy bosimni yuzaga keltirmoqda.

ASOSIY QISM (IMRAD)

Tadqiqot usullari (Methods)

Mazkur tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, falsafiy tahlil, Qur'oni karim oyatlari va hadislarini o'rganish, ijtimoiy kuzatuv va taqqoslash, shuningdek, ilmiy adabiyotlar tahlili usullaridan foydalanildi.

Natijalar (Results)

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda to'y marosimlariga ketayotgan xarajatlar keskin oshgan. Ayrim hududlarda to'y uchun sarflanadigan mablag'lar oilaning yillik daromadining 40–60 foizigacha yetmoqda. Bu holat yosh oilalarning qarzga botishiga, uy-joy va ta'lim masalalarini kechiktirishiga sabab bo'lmoqda.

Muhokama (Discussion)

Xalqimizda bir duo bor: "Topganing to'ylarga buyursin!" Shu duoning ijobati o'laroq, g'amimiz yeb ichish, o'yin kulgu, bazm bo'lib, topgan pulimizni farzandlarimizning ilm olishi uchun emas, balki, bir kunlik to'y uchun sarflayabmiz. O'zbek xalqi azaldan mehmondo'st xalq bo'lib, orzusi katta katta to'ylar qilib, yillar davomida to'yini ko'ray degan farzandining yeb ichishidan, sportga qatnashidan, bilim olishidan, hunar o'rganishidan pulini tejab, bir kunlik to'y uchun sarflashi kulgili holarmi yoki achinarlimi? O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek:

"Farzandlarimiz bizdan ko'ra bilimli, kuchli va baxtli bo'lishi shart." Bu fikr ota-onalar zimmasiga nafaqat farzandni voyaga yetkazish, balki uning ta'lim va kamoloti uchun mustahkam iqtisodiy va ma'naviy poydevor yaratish mas'uliyatini yuklaydi. Baxt ostonasiga qadam qo'yayotgan yoshlarimizga kattalar orzusudagi to'ylar emas, ilm va salomatlik omilida qurilgan sog'lom oila maskani kerak. Shu nuqtai nazardan, to'ylarni ixchamlashtirish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ma'naviy ahamiyat kasb etadi. Yevropa davlatlarida to'y marosimlari odatda ixcham, yaqin qarindoshlar doirasida va iqtisodiy imkoniyatlardan kelib chiqib o'tkaziladi. Asosiy e'tibor marosimning mazmuni va oilaviy mas'uliyatga qaratiladi. Aksincha, bizda ayrim hollarda to'y ijtimoiy mavqe ko'rsatish vositasiga aylanib, ma'naviy mohiyatdan uzoqlashmoqda.

Falsafada me'yor tushunchasi inson ehtiyojlari va imkoniyatlari o'rtasidagi muvozanatni ifodalaydi. Aristotel o'zining "O'rtacha yo'l" haqidagi ta'limotida har qanday haddan oshish insonni fazilatdan uzoqlashtirishini ta'kidlaydi. Fransuz faylasufi Jan Bodriyar iste'molni ramziy ma'no kasb etuvchi jarayon sifatida talqin qilib, inson buyum orqali o'zini tasdiqlashga urinayotganini ta'kidlaydi. Bu holat to'ylar misolida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Qur'oni karimda: "Yeb-ichinglar, ammo isrof qilmanglar. Albatta, Alloh isrof qiluvchilarni sevmaydi" (A'rof surasi, 31-oyat), deb marhamat qilingan. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.): "Eng barakali nikoh — eng osoni", deganlar. Bu hadislar to'y marosimlarida soddalik va me'yor muhimligini ko'rsatadi.

XULOSA (Conclusion)

Xulosa qilib aytganda, dunyo millatlari ilmi, odobi, sporti, ishlab chiqarishi bilan mashg'ul va mashhur bir vaqtda, biz bir kunlik to'yimizni ko'z ko'z qilib maqtanmasdan, halol mehnat bilan topgan pulimizni farzandlarimizning kelajakdagi yutuqlari uchun sarflashimiz, kim o'zarga xalqimiz ichida to'y qilib emas, balki, dunyo miqyosida bilim olib bilimimiz bilan bellashganimiz, to'y va tadbirlarimizni tartibga solmog'imiz kerak. Demak, to'y marosimlarini ixchamlashtirish ijtimoiy zarurat bo'lib, u yosh oilalarning iqtisodiy barqarorligi, farzandlar ta'limi va jamiyat ma'naviy rivojiga xizmat qiladi. 2736-III/QQ-592-III-sonli qo'shma qaror milliy qadriyatlarga zid bo'lmasdan, aksincha, ularni asrashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qur'oni karim.
2. Imom Bayhaqiy. Hadislar to'plami.
3. Aristotel. Nikomax xaxloqi.
4. Bodriyar J. Iste'mol jamiyati.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashining



2736-III/QQ-592-III-sonli qo‘shma qarori

6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — T.: O‘zbekiston.